

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SEGMENT BIRLIKLAR OPPOZITSIYASI TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7881840>

Qodirova Xolidaxon Ulug'bek qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Qodirovaxolidaxpn1999@gmail.com

Annotatsiya.

Mazkur maqolada ingliz hamda o'zbek tillari fonetikasiga nazar tashlab, ularning fonetik sistemasi elementlaridan bo'lmish segment birliklar ya'ni unli hamda undosh fonemalar artikulyatsion-akustik jixatidan o'rganiladi. Shu bilan birgalikda ingliz va o'zbek fonemalarning izomorfik hamda allomorfik xususiyatlari qiyosiy tadqiqi ham yoritib beriladi.

Kalit so'zlar.

fonetika, fonema, segment birliklar, artikulyatsion-akustik, monoftong, diftong, diftongoid, urg'u.

Abstract.

In this article, looking at the phonetics of English and Uzbek languages, segmental units, namely vowel and consonant phonemes, which are elements of their phonetic system, are studied from the articulatory-acoustic point of view. Along with this, a comparative study of the isomorphic and allomorphic properties of English and Uzbek phonemes is also highlighted.

Key words.

phonetics, phoneme, segment units, articulatory-acoustic, monophthong, diphthong, diphthongoid, stress

Ingliz tili bugungi kunda dunyo sahnasida o'ziga xos o'rniga ega bo'lgan tillardan biridir. Bugungi kunda ayniqsa ingliz tilini ko'plab mamlakatlarda o'rganish ommalshib bormoqda shu bilan birgalikda ushbu tilde ravon gapira olish, muloqot qilish ko'nikmalariga ega bo'lish ko'pchilik uchun asosiy maqsadga aylanmoqda. Sir emaski, malakali muloqot ko'nikmalarini egallash uchun juda ham nozik bo'lgan bir sohani sedan chiqarmaslik zarur, ya'ni ingliz tili fonetikasini.

Ingliz tili fonetikasi Osiyo davlatlari tillaridan tubdan farq qilgani sababli, uning qonun-qoidalaridan xabardor bo'lish, ushbu tilda so'zlay olish qobiliyatimizni oshiradi. Ammo ingliz tilini o'rganuvchilari orasida yomon

talaffuz, soʻzlarni umuman notoʻgʻri yoki chala talaffuz etish holatlari tez-tez kuzatilib turadi. Hamma gap shundaki ingliz tili hamda oʻzbek tilidagi nutq tovushlari hamda fonemalar shu qadar rang-barangki, ular oʻrtasidagi farqni yaxshi anglamasdan ravon muloqot yuritish amri-maholdir.

Ingliz tilini hamda uning fonetikasini qanchalik erta oʻrganishni boshlasangiz shunchalik koʻp muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Lekin koʻpchilik ushbu tilni oʻrganish mobaynida uning fonetikasini eʼtibordan chetda qoldirishi yoqimsiz natijalarga olib kelishi mumkin. Ingliz fonetikasi alohida eʼtibor bilan oʻrganilishi kerak boʻlgan narsalardan biridir.

Ingliz tilini ikkinchi chet tili sifatida oʻrganish jarayonida shuni unutmaslik kerakki, ingliz tili fonetikasi yoki talaffuzini oʻrganish uchun alohida musiqiy bilimlarga ega boʻlish shart emas. Shunchaki miyamizning yoshlikdan beri oʻzbek tilini nutq tovushlarini talaffuz etishga moslashtirib kelgan nutq organlari faoliyatiga oʻzgartirish kiritish kerak boʻladi. Ingliz tilidagi baʼzi tovushlar talaffuz etilish chogʻida nafaqat fizik balkim biologik oʻzgartirishlar ham zarurdir. Oddiygina nutq toʻlqinini yoki tovush artikulatsiyasining diagrammasini koʻrish orqali uni qanchalik aniq hamda jonlidek tasavvur qilinmasin, ovoz hosil qilish jarayonidagi asosiy komponentlarni tushunib yetmaguncha yaxshi natijaga yordam bermaydi. Umuman olganda, ingliz unli va undosh tovushlarning talaffuz qilish qiyinligining asosiy sabab shundaki ularni talaffuz etish chogʻida siz bir paytning oʻzida ham miyani, ham jagʻ muskullarini ishlatishingiz kerakligidadir. Yaxshi natijaga erishish uchun sizdan murakkab mehnat hamda koʻp shugʻullanishni talab etadi.

Tilshunoslikda fonetik tillar tushunchasi mavjud boʻlib, fonetik tuzilishga ega boʻlgan tillarda biron-bir soʻzni yozma shakliga nigoh tashlaysiz hamda uni toʻgʻri talaffuz eta olasiz. Yoki fonetik tilde eshitgan soʻzingizni behato yoza olasiz. Bu kabi tillarda tovush hamda yozuvda toʻgʻridan-toʻgʻri munosabat mavjud. Ammo fonetik boʻlmagan tillarda eshitgan soʻzingizni toʻgʻri yozolmaysiz, yoki aksincha yozma shakldagi soʻzni toʻgʻri talaffuz eta olmasligingiz ehtimoli bor. Bunday tillar fonetik boʻlmagan tillar deb ataladi. Ingliz tili ham fonetik boʻlmagan tillarga kiradi.

Yangi til oʻrganish jarayonida dastlab soʻzlarni qanday talaffuz etishni, soʻngra ularni qanday yozishni oʻrganasiz. Agar ingliz tilini oʻrganish jarayonida faqatgina gapirsangiz hech qanday qiyinchilikka duch kelmaysiz. Ammo ingliz tilida yozishni boshlaganingizda anchagina muammolarga duch kelishingiz tayin.

Gap shundaki siz bir paytda soʻz talaffuzini eshitsiz shu bilan birgalikda uning qanday yozilishini yodda saqlashingizga toʻgʻri keladi.

Ingliz tili fonetikasi lingvistlar tomonidan birmuncha murakkab deb topilgan. Buning asosiy sababi shuki, ingliz tili lotin alifbosiga asoslangan boʻlib, 26 ta harfdan iborat. Lekin qiyin tomoni shundaki, harflardan ikki barobar koʻproq tovushlar yaʼni 46 ta fonema mavjud. Ushbu fonemalar juda ham muhim hamda soʻz talaffuzida muhim ahamiyat kasb etgani tufayli ular nutqda qanday hamda nima uchun ishlatilishini yaxshilab tushunib olish darkor.

Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, ingliz tilining oʻziga hos xususiyati bu tildagi mavjud harflar soniga mos kelmaydigan koʻplab fonemalar sonidir. Bu shuni anglatadiki, bir harf oʻzi yaqinida turgan harflarga qarab turlicha fonemalarga aylana oladi. Oʻzbek va ingliz tillari fonetikasini bir-biriga qiyoslar ekanmiz, fonemalar farqidagi katta tafovut haqida soʻz ochmay iloji yoʻq.

Ingliz va oʻzbek tilidagi undosh fonemalarning qiyosiy jadvali ularning artikulyatsion hamda akustik xususiyatlari ustiga qurilgan. Ushbu ikki tilning konsonantizm sistemasi ham oʻrtasida farqlar juda ham koʻp. Ingliz tili fonetika tizimi 24 ta fonemadan iborat boʻlib, ular oʻz ichiga quydagilarni oladi: /p/, /b/, /s/, /t/, /k/, /g/, /n/, /ŋ/, /l/, /m/, /h/, /v/, /d/, /z/, /tʃ/, /dʒ/, /ð/, /θ/, /r/, /w/, /j/, /f/.

Oʻzbek tili undosh fonemalari esa 23 ta boʻlib, oʻz ichiga quydagi fonemalarni oladi: /p/, /b/, /f/, /v/, /s/, /z/, /t/, /d/, /sh/, /j/, /k/, /g/, /kh/, /gʻ/, /q/, /h/, /n/, /l/, /m/, /ng/, /y/, /r/, /ch/.

Zamonaviy ingliz tili fonetikasida mavjud boʻlgan baʼzi fonemalar(θ, ð, w) oʻzbek tili fonetik sistemasida topilmaydi, shunga oʻxshab oʻzbek tilidagi (kh, gʻ, q) fonemalarining ingliz tilida muqobil varianti mavjud emas.

Ingliz adabiy tili vokalizm sistemasi murakkab tuzilgan boʻlib, urgʻuli holatda 19 ta fonemani, urgʻusiz holatda esa 20 ta fonemani oʻziga oladi. Unli fonemalarning urgʻuli va urgʻusiz fonemalarga ajralishi sababli ingliz tili fonetikasida urgʻuli vokalizm va urgʻusiz vokalizm kabi kategoriyalarga farqlanadi. Oʻzbek tilida esa bu holat birmuncha soda boʻlib, unli fonemalar faqat monoftonglardan iborat 6 ta fonemadan iborat holos. Oʻzbek tilida urgʻuning unli fonemalarga taʼsiri ingliz tiliga solishtirganda anchagina kamligi tufayli urgʻu unli fonemalar soni hamda sifatiga unchalik taʼsir koʻrsatmaydi. Shu sababli ham unli fonemalarni urgʻuli vokalizm hamda urgʻusiz vokalizm kabi kichik boʻlimlarga boʻlishga hojat yoʻq.

Ovoz hosil qilishning umumiy tamoyillari tilning harakatiga, labning holatiga, miqdor xususiyatlariga qarab belgilanadi uzun-qisqa va tarqatish.

1) Tilning gorizontaal harakatiga ko'ra, unlilar old, aralash va orqa tovushlarga bo'linadi. Unli tovushlarni qiyosiy tipologik tasniflashda tilning asosiy qismining joylashuvi asosida unlilarning besh guruhi ajratish mumkin: a) old - /i:/, /e/, /æ /; b) oldingi orqaga tortilgan - III; v) aralash - /z:/, /i/; d) orqaga ilg'or - /i/, /l/; e) orqaga - /i:/, /o/, /o:/, /a:/.

2) Tilning vertikal harakatiga ko'ra (yoki tilning ko'tarilgan qismining balandligi) unlilar quyidagilarga bo'linadi: a) yaqin yoki baland - /i:/, hi, /i/, l\i:l; b) o'rta ochiq yoki o'rta - /e/, /l/, /e:/ h i; s) ochiq yoki past - /j/, /o/, /o:/, /a:/. Tilning bu balandliklarining har biri ikkita o'zgarishga ega: tor va keng. Unli tovushlarni tasniflashning bu tamoyillari juda ikki yoki undan ortiq tillarning unlilar tizimini qiyosiy-tipologik o'rganishda, shuningdek, ko'p tilli tillarda muhim ahamiyatga ega. unlilar.

3) lablar orniga kora unlilar bo'lishi mumkin yumaloq va dumaloq. Dumaloq unlilar ikki xil: a) biroz yumaloq - h i, /i/ va b) yaqindan yumaloq - /o:/, /i:/; U yerda dumaloqlanmagan unlilar ham ikki xil: a) ning neytral pozitsiyasi lablar - /l/, /e:/, III va b) lablarning yoyilgan holati - /a:/, /ee/.

O'zbek hamda ingliz tilidagi unli fonemalar og'iz ishtirokiga ko'ra shakllantirilishiga qarab tasniflanadi. Ikkala qiyoslanayotgan tillarda burundan hosil bo'ladigan unli tovushlar mavjud emas.

Agar ingliz hamda o'zbek unli tovushlari hosil bo'lish jarayonini rentgen apparati yordamida kuzatsak, ular hosil bo'lishidagi til va lablarning joylashgan o'rnidagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Har ikki tilda ham mavjud bo'lgan /i/, /e/, /a/, /o/, /u/ ,/ ə/ unli fonemalarning hosil bo'lish jarayonidagi akustik xususiyatlari qiyoslansa yanada yaxshiroq natijalarga erishish mumkin. Misol uchun, ingliz tilidagi /ɔ/ unlisiga o'zbek tilidagi /o/ unlisi , ingliz tilidagi /æ/, /ʌ/, /ɑ/ fonemalariga o'zbek tilidagi /a/ fonemasi ayni mos keladi.

Bu turdagi qiyosiy taqqoslashlar o'zbek hamda ingliz tillaridagi fonemalar o'rtasidagi bog'liqlarni akustik, artikulatsion tomondan o'rganishlar chog'ida yanada osonlashtirib beradi.

Tilning gorizontaal harakatiga ko'ra ingliz tilidagi unli tovushlar til oldi unlilari, til oldi biroz siljigan unlilar, aralash unlilar, til orqa biroz siljigan unlilar, til orqa unlilarga farqlanadi. O'zbek tilidagi unlilar esa to'laligicha til oldi va til orqa

unlilarga ajratish mumkin. O'zbek tilida til oldi biroz siljigan yoki til orqa biroz siljigan unlilar mavjud emas.¹⁰⁵

Ingliz tilida o'zbek tili fonetikasida uchramaydigan boshqa fonetik birliklar, ya'ni diftong, diftongoid, monoftonglar guruhlari bor. Ularning tasniflanishida nutq a'zolarining barqarorlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tovush talaffuzida nutq organlari bir holatdan boshqa bir holatga o'zgarmaydigan unli tovushlar monoftonglar deb ataladi. Monoftong so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, "monos – bir, phtongos – tovush" degan ma'noni anglatadi. Ingliz tilida 10 ta monoftonglar mavjud bo'lib, ular fonetik xususiyatlari jixatidan bir-biridan ajralib turadi: [I, æ , ʌ , ɑ , ɜ , ɒ , ɔ , ə , e].

Artikulatsion jixatdan asosiy fonemaga o'xshaydigan qo'shimcha elementga ega bo'lgan tovushlarga diftonglashgan tovushlar deb ataladi. O'zbek tili fonetikasida diftonglashgan tovushlar mavjud emas. Ingliz tili unli tovushlar sistemasida /i:/ hamda /u:/ tovushlari diftonglashgan tovushlar sanaladi va ular nutqda /ii/ va /uu/ kabi talaffuz etiladi. Yozuvda diftonglashgan tovushlar ikki nuqta bilan ifodalanadi hamda cho'ziq talaffuz etiladi. Shu jixatdan ular monoftonglarga o'xshab ketadi:[i:, u: , a: , ɔ: , ɜ:]. Ammo ularning asosiy farqlanishi ularning hosil bo'lish jarayonida nutq a'zolarining holati o'zgarish yoki o'zgarmasligidadir. Diftonglashgan unlilarda til holati kuchsiz darajada o'zgarishga uchraydi, monoftonglar hosil bo'lish jarayonida esa til holati o'zgarishga uchramaydi.

Ikki unlidan tashkil topib bo'g'in yoki morfemada ikkiga ajralmaydigan tovushlarga diftonglar deb nomlanadi. Diftong so'zi yunon tilidan olingan bo'lib " di(s) – ikki, phtongos – tovush " degan ma'nolarni bildiradi. Diftonglar hosil bo'lish jarayonida nutq a'zolari o'z holatini o'zgartiradi. Diftonglar yadro hamda glayd deb ataluvchi ikki tovushdan tashkil topgan bo'lib birinchi tovush yadro talaffuzda aniq va kuchli , ikkinchi tovush glayd esa kuchsiz bo'ladi. Ingliz tili fonetika sistemasida 8 ta diftonglar mavjud bo'lib, ular ikkiga ajraladi: markaziy hamda tushuvchi. Markaziy diftonglarga [ɪə , eə , uə] tovushlari kiradi, shuningdek tushuvchi diftonglarga esa [eɪ , aɪ , ɔɪ , aʊ , uə] tovushlarini o'zida jamlaydi.

Diftonglar so'z ohirida pauzadan oldin cho'ziq, jarangli undoshdan oldin bir muncha qisqaroq , jarangsiz undoshdan oldin esa juda qisqa talaffuz qilinadi. Ingliz tilidagi monoftong, diftong hamda diftongoidlar yozuvda bir nechta harf yoki harf birikmasi ko'rinishida tasvirlanadi.

¹⁰⁵ Abduazizov.A. English Theoretical Phonetics. Toshkent 2007

Tarixan o'zbek tilida ham unli fonemalar soni 20 ga yaqin bo'lgan bo'lsada, ularning soni va sifati bugungi kunga kelib anchagina soddalashib ketdi. Hozirgi kunda zamonaviy o'zbek tili fonetikasida atigi 6 ta fonema mavjud bo'lib, ular cho'ziq yoki qisqalik jixatidan o'rta cho'ziqlikdagi fonemalar hisoblanadi. Ingliz tilidan farqli ravishda o'zbek tilida fonemalarning har biri bitta harf bilan tasvirlanadi.

Zamonaviy o'zbek tili fonetikasida aytib o'tganimizdek 6ta unli fonemalar mavjud bo'lib ular akustik-artikulatsion jixatidan 3 xil tasniflanadi:

1. Tilning gorizontal holatiga ko'ra :
 - a) Til oldi unlilari : /e/, /i/, /a/
 - b) Til orqa unlilari : /o/, /o'/, /u/.
2. Tilning vertikal holatiga ko'ra :
 - a) Yuqori tor unlilar : /i/, /u/.
 - b) O'rta keng unlilar : /e/, /o'/'.
 - c) Quyi keng unlilar : /a/, /o/.
3. Lablarning ishtirokiga ko'ra :
 - a) Lablangan : /u/, /o'/', /o/.
 - b) Lablanmagan : /i/, /e/, /a/.

Ingliz tilida unlilar urg'u ishtirokiga ko'ra 19 , urg'siz holatda esa yana bitta fonemaga ko'payadi, ammo urg'u o'zbek tilidagi fonemalar soniga ta'sir ko'rsatmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 . Abduazizov.A. English Theoretical Course. Toshkent
- 2 . Baskakov.N.A.,Sodiqov.A.S., Abduazizov.A.A. Umumiy tilshunoslik.-T.:O'qituvchi1979.
- 3 . Abduazizov.A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-T. Sharq.NMAK 2010